


141. Ikki xonali sonni ko'paytirish

Yondosh mavzu:
sog'lom turmush tarzi.

Taqsimot qonuni.



1. Sanjar bilan Kamol ertalab 6 turdagi mashqlardan iborat sport mashg'ulotlarini bajaradilar. Ularning har biridan Sanjar 10 tadan, Kamol esa 15 tadan harakatlarni bajaradi. Bolalardan qaysi biri ko'proq harakatlarni bajaradi. Matematik amallarni bajarmagan holda savolga qanday javob berish mumkin?



Foydali maslahat

Organizmni birdaniga ko'p sonli mashqlar bilan zo'riqtirmaslik kerak, yuklamani asta-sekin o'rta-orttirib borish kerak.



2. Akmalning kundalik mashg'ulotlaridagi 7 ta mashq qo'llarga va 8 ta mashq mushaklarga tegishli. Agar har bir mashqqa 3 minut sarflansa, mashg'ulot qancha vaqt davom etadi?



3. To'g'ri to'rtburchakning AC bo'yi 10 cm ga teng. Uning eni 4 cm. Shu to'g'ri to'rtburchakni yasang. Uning yuzini toping.



4. 15 ni 6 ga qanday ko'paytirish mumkin?



Ikki xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish uchun ko'paytirishning taqsimot qonunidan foydalanish mumkin:

$$15 \cdot 6 = (10 + 5) \cdot 6 = 10 \cdot 6 + 5 \cdot 6 = 60 + 30 = 90$$

10	5
----	---



5. Zanjirdagi qonuniyatni aniqlang. Navbatdagi soat qanday vaqtni ko'rsatadi?



6. Hisoblang.

$27 \cdot 7$

$45 \cdot 3$

$38 \cdot 9$

$55 \cdot 6$



7. Stomatologlar maktab o'quvchilari bilan uchrashdilar va tishlarning salomatligi haqida shuhbat o'tkazdilar. Shundan keyin o'quvchilarga har birida bir tyubik tish pastasi va uchadan tish cho'tkasi bo'lgan jamlanma sovg'a qildilar. Agar sinfda 32 nafar o'quvchi bo'lsa, stomatologlar o'quvchilarga hammasi bo'lib nechta tish cho'tkasi sovg'a qilishgan?



142. Ikki xonali sonni ko'paytirish

Yondosh mavzu:
toza havoda sayr qilish.

Taqsimot qonuni.



1. Sxemadan foydalanib, xiyobonga o'rnatilgan o'rindiqlar sonini aniqlang.



2. Bog'ga ekish uchun gullar keltirildi: 3 yashik lola, 4 yashik moychechak va 2 yashik atirgul. Agar har bir yashikdagi gullar 45 tani tashkil etsa, hammasi bo'lib nechta gul keltirilgan?



3. Amallarni bajaring.

$$45 \text{ dm} \cdot 5$$

$$23 \text{ kg} \cdot 8$$

$$24 \text{ h} \cdot 6$$

$$64 \text{ cm} \cdot 4$$

$$54 \text{ l} \cdot 7$$

$$15 \text{ mm} \cdot 9$$



$$13 \cdot 8 \text{ m}$$

$$42 \cdot 8 \text{ l}$$

$$56 \cdot 7 \text{ h}$$



4. To'g'ri to'rtburchaklarning tomonlarini o'lchang va ularning yuzini toping.





5. Hisoblang.

$3 \cdot 46$


$62 \cdot 5$

$4 \cdot 92$

$74 \cdot 5$



6. Istirohat bog'i sxemasini tuzing. Istirohat bog'i yuqoridan qanday ko'rinadi. Berilgan belgilardan foydalaning. Siz qaysi belgilarni tanlaysiz?



darvoza



daraxt



gulushti



o'rindiqlar



favvora



7. Istirohat bog'i xodimlari qishda qushlarni boqishadi. Buning uchun ular bir kunga 2 kilogramm don sotib olishadi. Bir haftada necha kilogramm don kerak bo'ladi? Bir oyga-chi? Butun qish mavsumi uchun-chi?



8. Hisoblang.

a	14	25	18	29	54	42	16	27	34
b	8	4	6	7	3	5	8	4	4
$a \cdot b$									